



## THE SEMANTICS OF WORDS MEANING TIME IN QUTB AL-BILIG

### “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA VAQT MA’NOSINI BILDIRUVCHI SO‘ZLAR SEMANTIKASI

Mardanova Dilshoda Sadriddin qizi  
ToshDO‘TAU magistranti

#### ANNOTATSIYA

Eski turkiy tilimizda tarixiy vaqt ma’nosini bevosita atovchi va vaqtga aloqador predmet, voqeahodisalarни nomlovchi leksemalar talaygina. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham shunday vaqt semali birliklarning bir qanchasi aks etgan muhim manba hisoblanadi. Maqolada tarixiy vaqt semali birliklar leksik – semantik jihatdan tahlil qilingan. Ularning hozirgi o‘zbek tilida saqlanishi, fonetik, morfologik, semantik jihatdan o‘zgarishiga uchraganligi o‘rganilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** Yusuf Xos Xojib, “Qutadg‘u bilig”, eski turkiy til, lug‘at, “vaqt” semali birliklar, payt, diaxron, vaqt-payt ma’nosidagi so‘zlar.

Har bir fanning mohiyatini tushunishimizda uning tadrijiy rivojlanishi, bugungi kunga qadar fan sifatida shakllanishi, ya’ni tarixan tarkib topishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Lingvistik birliklarni har tomonlama tahlil qilish ularning shakllanish mexanizmini ko‘rib chiqish, keng ko‘lamli faktik materiallarni, mavjud bo‘lgan tadqiqot natijalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, “vaqt” semali birliklarni alohida tadqiq qilish, ularni o‘rganishda tarixiy holatiga e’tibor berish ma’lum ahamiyatga ega.

Vaqt tushunchasining murakkabligi va ko‘p qirraliligi uni o‘rganishga yondashuvlarni tanlashning favqulodda kengligini belgilaydi. Turli yillardagi mahalliy va xorijiy olimlar o‘z tadqiqotlarida ushbu hodisaning turli jihatlariga murojaat qilishdi. “Har qanday moddiy jarayon bir yo‘nalishda o‘tmishdan kelajakka qarab rivojlanib boradi”. Har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o‘rganishning yagona ilmiy yo‘li birlamchi manbalarga asoslanib, yozma yodgorliklar tili bilan hozirgi tilni qiyoslash, shu asosda ikki oradagi yaqinlikni, farq va yangiliklarni aniqlashdir.

Eski turkiy tilimizda tarixiy vaqt ma’nosini bevosita atovchi va vaqtga aloqador predmet, voqeahodisalarни nomlovchi leksemalar talaygina. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham shunday vaqt semali birliklarning bir qanchasi aks etgan muhim manba hisoblanadi. Avvalo asarda vaqt, payt ma’nolarida vaqt so‘zi istifoda etilgan: **vaqt** [a.] vaqt . Bu buyra xan vaqtii ičrä anii, jemä xan tilinčä bu ajtmiš munii – Bu kitob Bug’roxon vaqtida, xon tilida yozilgan (QBK, 4).

“Qutadg‘u bilig” asaridagi vaqt ma’nosini ifodalovchi bunday leksemalarni ma’nosiga ko‘ra quyidagi guruuhlarga ajratdik:

#### 1. Sof vaqtini mavhum predmet sifatida ifodalovchi vaqt semali birliklar.

jaš yosh, hayot. Tirig tutyil anča jašim qil uzun – Tirik tutgin ancha, yoshimni uzun qil (QBN, 397; QBN, 373).



**öd** vaqt. Ajıqlıy turur bu ölüm belgülüg, ödi kelmäginča er ölmäz külüg – Shubhasiz, bu o'lim muhaqqaqdir, (ammo) vaqtı-soati yetmaguncha mard bahodirlar o'lmaydilar (QBK, 121<sub>15</sub>).

**ösläk** vaqt, taqdir. Oqun urdī ösläk oqi qıldı baš – Taqdir o'z o'qini urdi, bu o'q meni yaraladi (QBN, 407<sub>6</sub>; QBN, 556<sub>7</sub>).

**inčlik I** bo'sh vaqt. Bu kün buldum inčlik seňä kelgüka – Bu kun sening oldingga kelish uchun bo'sh vaqt topdim (QBN, 243<sub>5</sub>; QBN, 326<sub>8</sub>).

## 2. Vaqt faoliyat-jarayoni ifodalovchi vaqt semali birliklar.

**ämanät** [a.] omonat. Ämanät bilä bolsa köňli süzük – Imoni komil, ko'ngli pok bo'lsa (QBN, 169<sub>8</sub>; QBN, 220<sub>2</sub>).

## 3. Voqealikning uzluksiz davom etishini ko'rsatuvchi vaqt semali birliklar.

**ulam** – doimiy, bardavom. Ölümkä asiy qıldı ersä ot em, otači turu qalyaj erdi ulam – Agar dori-darmon o'limdan saqlab qolganida edi, tabiblar bardavom yashagan bo'lar edilar – (QBN, 98<sub>5</sub>; QBN, 118<sub>5</sub>).

**baqí** [a.] boqiy, abadiy (QBN, 94<sub>2</sub>).

**keč I** uzoq vaqt. Özi keč tirilsü jazilsu ati – O'zi uzoq yashasin, nomi tillarda doston bo'lsin (QBH, 63<sub>6</sub>).

**meňi II** boqiy, abadiy, mangu.

**meňü** abadiy, mangu. Özüň meňü ermäz atiň meňü ol, atiň meňü bolsa özüň meňü ol – O'zing mangu emassan, lekin noming mangudir, noming mangu bo'lsa, o'zing ham mangu qolasan (QBN, 294; QBN, 226<sub>2</sub>).

**meňülüg** abadiy, mangu. Tirildi ölümsüz uzun meňülüg – U (o'limsiz), uzoq va mangu yashadi (QBH, 61<sub>14</sub>).

**ölгüsüz** abadiy, mangu. Sözün edgü sözlä özüň ölgüsüz – So'zingni ezgu qil, ana shunda abadiy qolasan (QBH, 17<sub>21</sub>).

**kesüksüz** doimiy, uzluksiz, davomiy. Meniňdin bularqa üküş miň säläm, tegürgil iňim sen kesüksüz ulam – Menden bularga ko'pdan-ko'p salom, ularga davomiy yetkazgin, ey mening Egam (QBN, 17<sub>6</sub>; QBN, 60<sub>2</sub>).

## 4. O'tgan zamonnı ifodalovchi payt leksemalari

**ašnu** oldin, avval, burun. Men ašnu ajajın eligä sözüň, ne ermiş tiläkiň kim ermiş özüň – Men avval fikringni, tilaging nima-yu, o'zing kim ekanligingni hukmdorga aytayin (QBK, 22<sub>2</sub>).

**Ašnuqí** avvalgi. Jana ašnuqi sözkä janyaj tejü, taqı qorqar erdim seja ijmänü – Yana avvalgi so'zga qaytadi, deb hanuz xavotirlanib sendan qo'rkar edim (QBK, 301<sub>12</sub>).

**eski** eski, qadimgi, oldingi. Qamuy eski neňlär erinčig bolur – Hamma eski narsalar yoqimsiz bo'ladi (QBN, 60<sub>3</sub>; QBN, 673<sub>2</sub>).

**burunví** avvalgi, burungi, qadimgi, dastlabki. Biziň tilimizkä burunví uquš – (Bu kitob) bizning tilimizdagı (turkiy tildagi) birinchi donishmandlik kitobidir (QBN, 8<sub>1</sub>).

**kečgү** azalgi, qadimiy, eski. Edi kečgү söz bu mäθäldä kelir – Juda qadimiy so'z bu masalda keladi (QBH, 15<sub>11</sub>).

**kečki** qadimgi, eski. Eði kečki dünja barur bu narı – Bu dunyo juda ko'hna, qaridir (QBN, 388<sub>4</sub>; QBN, 529<sub>2</sub>).



**oza** oldin, ilgari, burun. Muniň teg kitabni kim ajmiš oza – Bunday kitobni oldin kim tuzgan? (QBK, 4<sub>15</sub>).

**ozaqï** avvalgi, burungi, qadimgi. Elig qoðti emdi ozaqï tiläk – Hukmdor avvalgi tilagini qo'ydi (QBN, 358<sub>12</sub>; QBN, 4880).

## 5. Kelasi zamonni ifodalovchi payt leksemalari

**udu** so'ngra, keyin. Begi qanča barsa udu qul joli – Bek qayerga borsa, quli ortidan boradi – (QBH, 110<sub>22</sub>).

**uðu** so'ngra, keyin. Men ašnu barajin seniñdin oza sen aqru uðu kel – Men sendan oldinroq borayin, keyin sen ortimdan sekin kelarsan (QBN, 426<sub>11</sub>; QBN, 5841).

**kin** keyin, so'ngra-. Ökünlüg bolur kin keňäsmäz kişi – Kengashmaydigan kishi o'kinchli bo'ladi (QBK, 337<sub>12</sub>).

**ötrü** keyin. Uluý tündi ötrü oyulqa baqa ajur – U uzoq vaqt jim turdi, keyin o'g'liga murojaat qildi (QBK, 72<sub>13</sub>).

**qaçan** qachon? qanday? Saňa tegsä emgäk ja qadyu saqinč, maňa-ma qaçan bolya anda sevinč – Senga musibat va g'am-qayg'u tegsa, men qanday qilib sevinchga to'layin? (QBK, 374<sub>6</sub>).

**basa** so'ngra, keyin. Eðgü tutsa bajat eðläsä, qamuy eðgü boldi anienda basa – Olloh kimni ezgu bilib, unga nazar qilsa, uning hayoti ezgulikka yo'g'riliadi (QBN, 443<sub>3</sub>; QBN, 6064).

**keligli** kelgusi, keljakdagı. Keligli ölüm utru keldi – Keladigan o'lim yuzma-yuz keldi (deb hisobla) (QBN, 116<sub>4</sub>; QBN, 144).

## 6. Inkor paytni bildiruvchi leksemalar.

**öðsüz** vaqtısız, vaqt-soati yetmasdan. Kişi öðsüz ölmäs – Kishi vaqt-soati yetmay turib o'lmaydi (QBN, 173<sub>1</sub>; QBN, 2252).

**hargız** [f.-t.] hargiz, hech. Ölüklik härgiz asiy qilmas em – O'ladigan odamga dori foyda bermaydi (QBN, 88<sub>13</sub> QBN, 1051).

## 7. Insonning biologik holati bilan bog'liq vaqt semasini bildiruvchi leksemalar

### balovät balog'at

**jigit** yigit. Jigit erdi oylan qılıńčı amul – O'glon yigit edi, fel-atvori sokin edi (QBH, 26<sub>20</sub>).

**jigitlik** yigitlik, yoshlik. Jigitlik keçär ol tiriglik učar – Yoshlik o'tadi, umr uchib ketadi (QBH, 18<sub>11</sub>).

**kiçiglik I** bolalik, yoshlik. Kiçiglikdä mensiz qalır sen bu kün – Yoshligingda mensiz qolarsan bu kun (QBN, 99<sub>10</sub>; QBN, 1202).

**qarııq** qari. Negü ter eşitgil qarı köklämiš – Soqliga oq oralagan qari kishi nima deydi, eshitgin (QBH, 60<sub>11</sub>).

**qarılıq** qarılık. Qarılıq jetilsä barır küč qamuy – Qarılık kelsa, hamma kuch ketadi (QBN, 409<sub>2</sub>).

**avičva** qariya, qari kishi. Negü ter bu avičya sözi avičya sözin tut unütma özün – Qari kishi nima deydi, eshitgil, qariya so'ziga quloq sol, doimo yodda saqla (QBH, 127<sub>10</sub>).

**avučvalik** qarılık. Jusuf čilbasi jigitlikkä ökünüüp avučyalıqin ajur – Yusuf chilboshi yigitlikka afsuslanib qarılık haqida so'zlaydi (QBN, 12<sub>3</sub>).

## 8. Sutka qismini ifodalovchi vaqt semali birliklar

### jarin III ertalab.



**jarin II** ertaga. Bu kün munda ersä jarin anda—(Agar baxt) bugun bu yerda bo'lsa, ertaga u yerda (QBN, 50<sub>10</sub>).

**jarinliq** ertangi. Meni kör usanma jarinliq iš et – Menga qara, beparvo bo'lma, ertangi ishingni bajarib qo'y (QBH, 50<sub>29</sub>).

**jarinqi** ertangi. Nečä-mä eräzlänsä esiz bu kün, ökünč birlä emgär jarinqi künün – Bu kun yomon qancha rohatlansa, ertangi kunini o'kinch bilan mashaqqat chekadi (QBN, 774; QBN, 905).

**keč II** kech. Keč jat jana ertä tur – Kech yot, yana erta tur (QBH, 60<sub>26</sub>).

**kečä** kechqurun. Kečä jatza taňta jana ač turur – Kechqurun yotsa, tongda yana och holda turadi (QBH, 103<sub>5</sub>).

**kečägi** kechqurungi, tungi, kechagi. Kečägi tüşüňkä jörügi adin – Kechagi tushingning yo'rig'i boshqa (QBH, 171<sub>10</sub>).

**kün II** kun. Tiriglik künijä tükäl alqinur – Umr kun sayin kamayib boradi (QBH, 108<sub>17</sub>).

**kündüz** kunduz. Qara tün törütti jaruq kündüzi – Qora tunni, yorug' kunduzi bilan yaratdi (QBN, 21<sub>14</sub>; QBN, 123).

**künki** kungi, kundagi. Tükäl boldi ol künki barča tapuy – O'sha kungi barcha ishlar bajarildi (QBN, 189<sub>9</sub>; QBN, 2496).

**künlük** kunlik. Nelük arsiqar sen aja öldäči, özüj iki künlük qonuq boldači – Ey o'lувchi, nega mag'rurlanasan? O'zing (bu dunyoga) ikki kunlik mehmon bo'luvchisan-ku (QBK, 206<sub>9</sub>).

**taň I** tong. Qopup jundi qıldi jana taň namaz, namazın ötádi dua qıldi – Turib tahorat qildi, tong namozini o'qidi, namozini tugatib, duo qildi (QBN, 285<sub>12</sub>; QBN, 3866).

**tün tun**, kechqurun. Uluy tutsa hamjät kör arslanlaju ügi teg usiz bolsa tünlä saju – Arslon kabi hamiyatni ulug' tutsa, ukki kabi tuni bilan uyqusiz bo'lsa (QBK, 123<sub>15</sub>).

**tünlä tun**, kechalar. Uzun tünlä jatma idigä tapunsen – Uzun tunlar yotma, Tangriga topin (QBK, 388<sub>10</sub>).

## 9.Hafta kunlarini bildiruvchi vaqt semali birliklar

**adina** (forscha) juma kuni. Čyajlar haži qil adina namaz – Kambag'allar haji hisoblangan juma namozini ham o'ta (QBN, 238<sub>10</sub>; QBN, 3200).

## Oy va yil nomini bildiruvchi leksemalar.

**aj II** vaqt birligi, 30 kunlik muddat. Tükäl on sekiz ajda ajdäm bu söz – Bu so'zlarni naq o'n sakkiz oyda aytib (yozib) tugatdim (QBK, 392<sub>10</sub>).

**ajliq** oylik, bir necha oylik muddat. Ana qarni mänzil qač ajliq amul – Ona qorni (rahmi) bir necha oylik sokin bir manzil bo'ladi – (QBN, 111<sub>7</sub>; QBN, 1372).

**jil** yil. Iki jil sekiz aj – ikki yil sakkiz oy (QBH, 161).

## 11. Fasl nomlarini ifodalovchi vaqt semali birliklar

**fasl** [a.] fasl, mavsum. Taqii bir tüš ol kör bu jil fasliňa – Yana bir tush borki, ular yil fasllariga bog'liq (QBN, 430; QBN, 5881).

**jaj** yoz, bahor. Qadir qışqa jandı jarumiš jaži – Uning yorqin yozı qattiq qishga aylandi (QBH, 467).

**jajqı** yoz. Üči jazqi julduz üçi jajqı bil – Ulardan uchtasi bahoriy yulduzlar, uchtasi yozgi yulduzlar, bilgin (QBN, 22<sub>15</sub>; QBN, 138).



**jaz** bahor. Jaruq jaz teg erdim tümän tü čečäklig – Turfa xil chechaklari bor nurafshon bahordek edim (QBK, 386<sub>16</sub>).

**jazqī** bahorgi. Qozi jazqī julduz – Qo'y – bahorgi yulduz (QBN, 22<sub>12</sub>; QBN, 135).

**küzki** kuzgi, kuz fasliga oid. Üči kuzki julduz üči qışqī – Ularning uchtasi kuzgi yulduz, uchtasi qishki (QBH, 16<sub>12</sub>).

**qış** qish. Erinčig qışiy sürdi jazqī esin – Bahoriy shamol zerikarli qishni haydadi (QBN, 17<sub>12</sub>; QBN, 64).

**qışqī** qishki. Üči kuzki julduz üči qışqī – Ularning uchtasi kuzgi yulduz, uchtasi qishki (QBH, 16<sub>12</sub>).

## 12. Vaqtning o'rnini ifodalovchi vaqt semali birliklar

**axır** [a.] oxir-oqibat, natija, oxirgi, so'nggi. Şähadät bilä kesgil axır tünüm – Oxirgi so'zimni shahodat bilan tugatgin (QBN, 40<sub>7</sub>; QBN, 387).

**azal** [a.] azal, taqdir, cheksiz ibtido. Bitilmiš bolur bu ažalqa azal – Bu ajal azaldan yozilgan bo'ladi (QBN, 51a).

**ätzäl** [a.] azal, mangulik. Meni ašnu ol qoldi erdi äzäl, anin men qolur boldum emdi tükäl – Avval U meni so'radi [ya'ni yaralishimni xohladi] (chunki u) azal edi, shu sababdan endi men tugal (uni) so'rar bo'ldim (QBN, 344<sub>12</sub>; QBN, 4683).

**äžäl** [a.] ajal. Jetilsä äžäl, bitilmiš bolur bu äžälqa äzäl – Agar ajal yetsa, bu ajal azaldan (peshonaga) bitilgan bo'ladi (QBN, 100<sub>13</sub>; QBN, 1218).

**bašla**=boshlamoq, boshqarmoq. Bajat ati birlä sözüg başladï – Xudoning nomi bilan so'zini boshladi (QBK, 184<sub>10</sub>).

**keč**= o'tmoq, kechirmoq, yashamoq. Jigitlik kečär ol tiriglik učar – Yoshlik o'tadi, umr uchib ketadi (QBH, 18<sub>11</sub>).

## 13. Muayyan ishning qisqa muddat yoki o'ziga xos ro'yobga chiqish vaqtini ifodalovchi vaqt semali birliklar

**ančan** shuncha, shu qadar, ancha mahal. Qaju iš qiliп bulmasa ol tatïy qodi bergü ančan aj bilgi batïy – Kim biror ishni qilib undan zavq topmasa, uzoq muddatga uni tashlash kerak, ey bilimi chuqur (QBK, 292<sub>12</sub>).

**evüg** tez orada, tez. Čiýaj tul jetim qissa bersä ötüg, anı barča tijlap ötünsä evüg – Kambag'al, beva, yetimlarning o'tinchlariga e'tibor qilsa, ularning barchasini tinglab, o'tinchlariga chora topsa (QBH, 92<sub>21</sub>).

**bütä** ko'p, uzoq. Bütä boldi elig jüzin körmädim – Ko'pdan beri hukmdor(yuzi)ni ko'rmadim (QBK, 74<sub>12</sub>).

**erkän** qachon, qachonki, hozircha, paytida. Kiçig oyлан erkän bilig ögränür, uluy bolsa ötrü tiläkkä tegür – Kishi kichiklik paytida bilim o'rgansa, yoshi ulg'ayganda tilagiga yetadi (QBK, 90<sub>7</sub>).

**bata** darhol, hoziroq. Elig aldii evkä kigürdi bata – Qo'l berishib ko'rishdi, darhol (mehmonni) uyga taklif qildi (kiritdi) (QBK, 191<sub>2</sub>).

## 14. Marosim nomlarini bildiruvchi vaqt semali leksemilar

**küdän** nikoh kechasi. Kelin qız sevinči küdän tünläri – Kelinlar sevinchi–nikoh kechasi (QBN, 88<sub>28</sub>; QBN, 2344).

## 15. Vaqt hisob birligini ko'rsatuvchi vaqt semali birliklar



**arslan II** arslon burji (o'n ikki burjdan birining, beshinchisining turkiy nomi, Asad burji). Kör arslan bılıq qoşni buydaj başı – Ko'rgin, Asad bilan Sumbula qo'shnidir (QBN, 12a).

**čadan (чадан) II** Aqrab burji. Toyardin čadan qopmisi – Sharqdan Aqrab burji ko'rindi (QBK, 290<sub>3</sub>).

**čidan** Aqrab burji. Başa ülgü bolti čidan ja eşi – Sharqdan Tarozi burji, uning hamrohlari Aqrab va O'qotar burji ko'rindi (QBK, 16<sub>10</sub>).

**erän tir** Tarozi burji, Mushtariy yulduzi, Egizaklar burji

**ja II** o'qotar burji

**könäk** Tog' echkisi burji. Basa keldi oylaq könäk häm balıq, bular tuydi ersä jarudi qalıq – Yana O'g'laq (Jadiy), Ko'nak (Dalv) va Baliq keldi, bular tuqqach, osmon yorishdi (QBN, 137).

**qučiq** chayon burji

**särätan** [a.] Saraton burji. Bu aj bürchi särätan – Ayni paytda oyning burji – Saraton (QBK, 31<sub>1</sub>).

**ud** Ud burji.

**ülgü** Tarozi burji. Başa ülgü boltičidan ja eşi – Sharqdan Tarozi burji, uning hamrohlari Aqrab va O'qotar burji ko'rindi (QBK, 16<sub>10</sub>).

Yuqoridaq tasnidan ko'rindan, eski turkiy tilda vaqt hisobi birliklari siftida doimiy takrorlanib turgan tabiat hodisalari asos qilib olingan. Bular: kun va tundan iborat bo'lgan sutkalar, osmonda oyning paydo bo'lishi, fazalarining almashinushi, ko'rinxmay qolishi, ya'ni oy va yerning quyosh atrofida yillik aylanishi edi. Asta-sekin vaqtini aniqlash ehtiyoji oshgan. Buning uchun esa osmon jismalari harakatini ko'proq kuzatish zarur edi va bu esa o'z navbatida astronomiya fanining rivojlanishini talab etadi. Shuning bilan birga boshqa masala paydo bo'ladi: ya'ni sutkalar, oylar, yillar o'rtasidagi munosabatni aniqlash kerak edi. Bu masalani yechish uchun murakkab matematik hisob-kitoblarni olib borishga to'g'ri keldi. Natijada qadim zamonalardan amaliy xronologiya sohasida astronomiya va matematik ma'lumotlarning qo'llanila boshlanishi asta sekin bu bilimlar sistemasini ilmiy fanga aylantira boradi.

Asar so'z boyligini tilshunoslikning yangi yo'nalishlari asosida o'rganish turkiy xalqlarning milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy turmushi, urf-odatlari, qadriyatları, eski turkiy til davridagi olamning lisoniy manzarasi haqida to'laqonli tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ba'zi so'zlarning etimologik tahlili ham keltirishga, tahlillar davomida so'z ma'nosidagi o'zgarishlar, ma'no kengayishi va ma'no torayishiga uchragan so'zlar xususida fikr yuritishga zamin bo'ladi.

Demak, turkiy qavmlarning ilk o'rta asrlardagi zamon – vaqt borasidagi tafakkuri, qarashlari va qarashlar aksini torgan leksika ushbu ota tilining vorisi bo'lmish bugungi kun o'zbek tiliga o'zgarishlar yetib kelgan. Bu o'zgarishlar so'zlardagi fonetik, leksik-semantik va funksional o'zgarishlardir. Bu xulosani ushbu leksemalarning diaxron tadqiqidagi funksional-semantik barqarorlik isbotlab berdi.

## Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'qituvchi va talabalari uchun qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
2. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – T.: "Mumtoz so'z", 2010.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1992.



4. Абдушукуров А. Эски туркий адабий тил лексикаси (140-143-бет); Тошкент-2015
5. Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчи формалар// Ўзбек тили ва адабиёти.- 1988.- №1- Б. 47- 51.;
6. Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари.НДА. Фарғона,2004.
7. Ҳакимова М. Ўзбек тилида лексик-семантик вақт тизими//Тил ва адабиёт таълими. -2003. - №3. -Б. 36-40.
8. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилувчи Қ.Каримов).-Т., 1972.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Т.: Фан, 1971. – 964 б.
10. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Ҳозирги ўзбек тилига ўтирувчи Ф.Равшанов).– Т.:Академнашр, 2015.